


Har qanday trening quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Izyuminka (joziba - qatnashchilar bilan ishlashning o'ziga hos ajoyib tomoni) qatnashchilarning treningga qiziqishini uyg'otish uchun qisqa bahs boshlash, savollar berish, qatnashchilar fikrini chalg'ituvchi (provakatsion) ta'kidlarni ilgari surish yoki qandaydir faoliyat turini faraz qilish. O'quv mashg'uloti qatnashchilarining dastlabki bilimlari va ularning hayotiy tajribalarini bog'lashga harakat qilish. Trening ahamiyati nimadan iborat ekanligi sabablarini tushuntirish.

 **Odatda trening qatnashchilari birinchi mashg'ulotda o'zini noqulay sezishi, Sizga nisbatan ishonchsizlik holatlari kuzatiladi. Unutmang, Sizning har bir harakatingiz va e'tiboringiz qatnashchilar ishonchini qozonishigizga asos bo'ladi.**

2. Qatnashchilar uchun natijalarni ta'kidlash. Qatnashchilarga treningdan qanday maqsad kutilayotganini auditoriyaga tushuntiring. Qatnashchilar trening natijasida: «Bu treningdan keyin nimalarni bilishim va nimalarni qilishim lozim?» degan savolga javob berishlari kerak.

3. Trenerning hissasi. Trening uchun zarur dastlabki ma'lumotlar, zarur bilimlar (matn, ma'ruza, hujjatlar, o'qish) va biror faoliyat turini o'tkazish uchun fan mazmunini namoyish qilish.

4. Interfaol strategiya - treningning yuragidir. Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini qisqacha bayon qilish. Interfaol uslub-bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib

chiqish. Guruxda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib borish. Qatnashchilar tushunganlik darajasini muntazam nazorat qilib borish.

Treningni yakunlashga vaqt yetishi uchun, uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qilish. Bu yerda treningni o'tkazish uchun mo'ljallangan savollar muhim ahamiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik. Trener mashqlarni qatnashchilar tomonidan bajarish jarayonida topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib borishi lozim.

5. Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashchilar o'zlari yod olgan va o'zlashtirgan bilim(yo'nalish)lari bo'yicha xulosa qiladilar, o'zlashtirgan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, o'quvchilar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar.

Bu - treningni baholash qismidan iborat bo'lib, bunda «Qatnashchilar nimani o'rgandilar?» savoliga javob olinadi. Trening davomida qatnashchilar o'rgangan yoki ko'rsatgan bilimlari natijalar bilan mos kelishini tekshiriladi.

Treninglar an'anaviy o'quv mashg'ulotlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- bunda ta'lim oluvchilar yoki ishtirokchilar guruhi yoshi va bilim jihatdan bir xil bo'lmaydi;
- trening jarayonining asosiy maqsadi ishtirokchilarni o'zaro muloqotga chorlash va faollashtirishdan iborat etib belgilanadi;
- o'qitish va tarbiyalashning shakl, metod va vositalari trening maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va individuallashtiriladi.



Yaxshi trening har doim trener va qatnashchilarning o'zaro

hamkorlikdagi harakatlariga asoslanadi.